

PEDAGOGIK MAHORAT

6
2020



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2020-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2020

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, № 6

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari: Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori, dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Choriyev Abdushukur Choriyevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Azim Meyliqulovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Sunnatova Ra‘no Izzatovna, psixologiya fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Morogin Vladimir Grigoryevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Xakassiya davlat universiteti, Rossiya)

Belobrikina Olga Alfonsasovna, psixologiya fanlari nomzodi, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Ne‘matovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo‘taboyev Muhammadjon To‘ychiyevich, iqtisod fanlari doktori, professor

Bo‘riyev Sulaymon Bo‘riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Qosimov Fayzullo Muhammedovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Jumayev Ulug‘bek Sattorovich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 6, 2020

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по **педагогике** и **психологии**.

Журнал основан в 2001г.

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Заместитель главного редактора: Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор: Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук, доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Чориев Абдушукур Чориевич, доктор педагогических наук, профессор

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Баратов Шариф Рамазанович, доктор психологических наук, профессор

Джаббаров Азим Мейликулович, доктор психологических наук, профессор

Суннатов Рано Иззатовна, доктор психологических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Морогин Владимир Григорьевич, доктор психологических наук, профессор (Абакан, Россия)

Белобрыкина Ольга Альфонсасовна, кандидат психологических наук, профессор (Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Ахмедова Шоира Негматовна, доктор филологических наук, профессор

Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Хаитов Шадман Ахмадович, доктор исторических наук, профессор

Тураев Халим Хаджиевич, доктор исторических наук, профессор

Мирзаев Шавкат Мустакимович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Бутабоев Мухаммаджон Гуйчиевич, доктор экономических наук, профессор

Буриев Сулаймон Буриевич, доктор биологических наук, профессор

Олимов Ширинбай Шарипович, доктор педагогических наук, профессор

Каххаров Отабек Сидикович, доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент

Касимов Файзулло Мухаммедович, кандидат педагогических наук, доцент

Жумаев Улугбек Саттарович, кандидат психологических наук, доцент

PEDAGOGICAL SKILLS**The scientific-theoretical and methodical journal****# 6, 2020**

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal was founded in 2001.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

e-mail: ped_mahorat@umail.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Ph.D. of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov. **Deputy Editor:** Ph.D. of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade. **Editor:** DSc, Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

Doctor of Economics Sciences, Prof. Obidjan X. Xamidov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I. Ibrahimov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Abdurashid Ch. Choriev

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova

Ph.D. of Psychology, Prof. Sharif R. Baratov

Ph.D. of Psychology, Prof. Azim M. Jabbarov

Ph.D. of Psychology, Prof. Rano I. Sunnatova

Ph.D. of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Ph.D. of Psychology, Prof. Vladimir G. Morogin (Abakan, Russia)

Ph.D. of Psychology Sciences, Prof. Olga A. Belobrikina (Novosibirsk, Russia)

Ph.D. of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraine)

Ph.D. of Technical sciences, Prof. Shavkat M. Mirzaev

Ph.D. of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov

Ph.D. of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Ph.D. of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Ph.D. of Philology, Prof. Shoiran N. Akhmedova,

Ph.D. of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Ph.D. of Historical Sciences, Prof. Shadman A. Khaitov

Ph.D. of Historical Sciences, Prof. Halim H. Turaev

Ph.D. of Economics, Prof. Nasir M. Mahmudov

Ph.D. of Economics, Prof. Mukhammadjon T. Butaboev

Ph.D. of Biological Science, Prof. Sulaymon B. Buriev

Ph.D. of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Ph.D. doctor of philosophy in economics Otabek S. Kahhorov

Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Fayzullo M. Kasimov

Ph.D. of Psychology Sciences, Prof. Ulugbek. S. Jumaev

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA.....7

Сиддик ҚАХҲОРОВ, Дилшод МИРЗОЕВ, Азизбек САЙФУЛЛАЕВ. Мутахассислик фанларни ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланишнинг ўзига хосликлари	7
Валихожа АТАХОЖАЕВ, Султонпошша АБДУЛЛАЕВА. Кейс технологии как инновационный метод	10
Насиба СОБИРОВА. Функции методической службы в формировании профессиональных компетенций учителей	13
Раъно АЛИМАРДАНОВА. Ўзбек оилаларида ёш келин-куёв ўртасидаги соғлом муносабатларни таъминловчи миллий-психологик омиллар.....	16
Шахноза ШАРИПОВА. Таълим жараёнида инновацион технологиялар татбиқи.....	22
Nazokat SAYIDOVA, Gulbahor ZARIPOVA, Orifjon HAYDAROV. Oliy ta'lim jarayonining kredit-modul tizimida professor-o'qituvchi bilan talabalarning pedagogik hamkorligi	28
Шабон ФАРМОНОВА. Лойиҳавий таълим воситасида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-педагогик зарурати.....	32
Шавқиддин АДАШБОЕВ. Олий таълим тизимини рақамлаштириш	36
Дилдора КАХХАРОВА. Теоретические основы организации инклюзивного образования в общеобразовательных школах	39
Шерзод АБДУРАҲМОНОВ. Бошланғич синф ўқувчиларида ватанга эътиқодни шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараённинг ўзига хос хусусиятлари	45
Гулноз ОЧИЛОВА, Гулнора МУСАХАНОВА. Ёшлардаги тадбиркорлик қобилияти шакллантирилганлигининг гендер хусусиятлари.....	50
Yoqubjon DJUMANAZAROV. Barkamol avlod tarbiyasida g'oyaviy-mafkuraviy muammolarning psixologik aspektlari va ularning profilaktikasi.....	53
Зубайда БАХРОНОВА. Шарқ мутафаккирлари қарашларида ахлоқий маданият масалалари.....	59
Хусен САФОЕВ. Современные особенности диалектического развития морально-психологического фактора.....	63
Ҳасан БАҲРОМОВ. Ибн Сино маънавий меросида таълим-тарбия масаласи.....	68
Ҳусниддин ҲОМИДОВ. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг омиллари.....	72
M.Sh.ХОЛИЕВА. Abu Ali ibn Sino shaxsi va uning ta'lim-tarbiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.....	75
Шохруҳ САЛИХОВ, Тимур САЛИХОВ. Ўқувчиларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг психо-физиологик асослари	80
Амрулло АБДУЛЛАЕВ. Буюк саркардаларнинг ҳарбий стратегиялари асосида ватан ҳимоячиларини тарбиялаш	84
Учқун БАЛИЕВ. Гуруҳ мураббийларининг талабалар билан тарбиявий жараёнини ташкил қилиш ...	87
Темир ОЛИМОВ. Талабаларда фуқаролик маданиятини ривожлантиришда маънавий-маърифий ишларнинг мазмуни	90
Ситорабону ХОЛБОЕВА. Педагогические основы подготовки девушек студентов к семейным отношениям	93
Абдурашид ТУРҒУНОВ. Мактабгача ёшдаги болалар хотирасини ривожлантиришда психологнинг вазифалари	97
Жасур ОСТОНОВ. Копинг-стратегии: развитие в онтогенезе	102
Олмос АВЕЗОВ. Экстремал ва фавқулотда вазиятлар тўғрисида замонавий тушунчалар	105
Ҳалим ҲАСАНОВ. Ўқувчиларда мусиқий тасаввурлар шаклланишининг педагогик-психологик аҳамияти.....	110
Жамол НОСИРОВ. Спортчиларда ҳиссий-иродавий сифатлар шаклланишининг психологик хусусиятлари	113

МАКТАБГАЧА ВА БОШИЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ.....118

М.З.Файзуллаева, М.Э.Рустамова. Мактабгача таълим тизимининг сўнгги йиллардаги ривожланиш ва тараққиёти таҳлили	118
Umedjon JUMAYEV, Zarina ASHUROVA. Jahon maktabgacha ta'limi rivojida noan'anaviy mashg'uatlar: Valdorf, Montessori pedagogikasi.....	121

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'RGANISH128

Насиба БОЗОРОВА. Юридик лексикани ўрганишда детектив асарларнинг роли.....	128
--	-----

Nazokat SAYIDOVA

Buxoro davlat universiteti
axborot texnologiyalarikafedrasida dotsenti
fizika-matematika fanlari nomzodi

Gulbahor ZARIPOVA

Buxoro davlat universiteti
axborot texnologiyalari kafedrasida dotsenti
pedagogika fanlari nomzodi

Orifjon HAYDAROV

Buxoro davlat universiteti
axborot texnologiyalari kafedrasida
2-kurs magistranti

OLIV TA'LIM JARAYONINING KREDIT-MODUL TIZIMIDA PROFESSOR-O'QITUVCHI BILAN TALABALARNING PEDAGOGIK HAMKORLIGI

Maqolada oliy ta'limning kredit-modul tizimida professor-o'qituvchi bilan talabalarning pedagogik hamkorligi haqida ilmiy fikrlar yuritilgan bo'lib, shunga ko'ra zaruriy yo'l-yo'riqlar, ko'rsatma hamda xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, kredit-modul tizimi, pedagogik hamkor, o'quv material, namunaviy, ishchi dastur, majmua, taqdimot, amaliy topshiriq, test, nazorat savollari, video dars, yakuniy nazorat savollari, demokratiya, oshkoralik, darsda muammoli ta'lim, mustaqil ish metodi, didaktik o'yinlar, yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol usullari.

В статье кредитно-модульная система высшего образования содержит научные заключения о педагогическом сотрудничестве факультета и студентов, в соответствии с которыми даются необходимые рекомендации, инструкции и заключения.

Ключевые слова: высшее образование, кредитно-модульная система, педагогический партнер, учебный материал, образец, рабочие программа, комплекс, презентация, практические задания, тест, контрольные вопросы, видеоурок, итоговые контрольные вопросы, демократия, прозрачность, проблемное обучение на уроках, метод самостоятельной работы, дидактические игры, интерактивные методы новых педагогических технологий.

This article the credit-modular system of higher education contains scientific conclusions on the pedagogical cooperation of the faculty and students, in accordance with which the necessary recommendations, instructions and conclusions are given.

Key words: higher education, credit-modular system, pedagogical partner, educational material, sample, work program, complex, presentation, practical task, test, control questions, video lesson, final control questions, democracy, transparency, problem-based learning in the classroom, method of independent work, didactic games, interactive methods of new pedagogical technologies.

Oliy ta'limning kredit-modul tizimida pedagogik hamkorlik professor-o'qituvchi bilan talabalarning hamkorlik faoliyati ta'lim subyekting o'zaro muloqotiga bo'lgan ehtiyojini qondirish vositasi bo'lib qolmasdan, balki bu faoliyat o'quv materialini o'zlashtirish vositasiga ham aylanishi lozim. Talabalarning ta'limga ixlos qo'yishi professor-o'qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilishi mahoratiga bog'liq. Bunday ta'limning kredit-modul tizimida pedagogik hamkorligi o'zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, unda professor-o'qituvchi o'zini ta'lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs, deb biladi. Talabalarning ta'limga qay darajada ixlos qo'yishi professor-o'qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog'liq. O'quv faoliyatidagi muhitning to'g'ri uyushtirilishi talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni butun kuch va g'ayratini sarflashga undaydi. Professor-o'qituvchilarning o'rgatayotgan fani bo'yicha qaysidir bir ma'lumotga aniqlik kiritish paytida talabalarga yordam so'rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. Talabalarni o'rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o'qish-o'qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borish shartigina bo'lib qolmay, balki ularni mustaqil fikrlaydigan, yuksak salohiyatli va har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir. Talabani o'qitish va tarbiyalash jarayonining o'zidayoq ta'limga nisbatan chuqur bilim, ko'nikma, malaka hosil qilib, bilim va tarbiya oluvchi shaxsiga aylanadi. Muammo yuzasidan olib borilgan izlanishlar talabalarning o'quv jarayoniga munosabati professor-o'qituvchi va talabalar o'zaro ta'sir jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quv materiallarini tanlash va tashkil qilish, bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish usullariga, o'quv natijalariga qo'yiladigan baho tizimiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Shunga ko'ra, talabalarning mustaqil fikr yuritish jarayonini professor-o'qituvchi bilan oliy ta'limning kredit modul tizimida pedagogik hamkorlik faoliyatiga chambarchas bog'liq deyish mumkin. Bunday ta'lim jarayonida, ayniqsa, katta ahamiyatga ega, bular quyidagilardir: namunaviy, ishchi dastur, fanga taalluqli majmua, o'tiladigan mavzular bo'yicha taqdimot, shunga ko'ra amaliy, laboratoriya va seminar hamda mustaqil ish topshiriqlari, har bir mavzu yuzasidan testlar va shu bilan birga nazorat savollari, mavzuni yaxshi o'ziga qamrab olgan video darslar hamda barcha mavzularni o'zida mujassamlashtirgan oraliq va yakuniy nazorat savollarini professor-o'qituvchilar talabalarga yetkazib berishlari lozim. Shu bilan birga zamondan orqada qolmaslik uchun faqat ijodiy izlanishda bo'lishlarini talab etgan holda fan yuzasidan yangiliklarni talabalar professor-o'qituvchilar nazorati ostida oddiydan murakkabga va soddadan qiyinga qarab bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib olishlari lozim. Bu esa o'z navbatida zamonamiz talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh, kuchli kadrlarni yetishtirib berishga yordam beradi.

Professor-o'qituvchi bilan oliy ta'limning kredit-modul tizimida pedagogik hamkorlik faoliyatida teng munosabat o'rnatar ekan, beriladigan har qanday topshiriq quvonch bilan bajariladi, natijada ta'lim samaradorligi ham ta'minlanadi. Ta'lim jarayonida talabalar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmgina bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik kerak. Bizningcha, o'quv vaziyati ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi o'zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat bo'ladi:

- 1) professor-o'qituvchi bilan talabalar hamkorligi;
- 2) talabalarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

Professor-o'qituvchi bilan talabalarning kredit-modul tizimidagi hamkorligi professor-o'qituvchining talabalarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib, o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada professor-o'qituvchi bilan talabalar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'sib o'tadi. Ijodkorlik va o'zaro hamkorlik bir-biriga mustahkam bog'liq. Zero, faqatgina ijodkorlik asnosida hamkorlik vujudga keladi va mana shu hamkorlikda ijodkorlik o'z ifodasini topadi. Pedagogik ijodkorlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o'tkazishga intilish deb tushunmaslik kerak. Bu intilish sog'lom fikrning rasmiyatchilik ustidan g'alabasini ham ifoda etadi. Demokratiya, oshkoralik bo'lmagan joyda, ma'muriyatchilik va professor-o'qituvchining irodasi bilan dars jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash faoliyatiga raxna solinsa, ijodiy hamkorlik barham topadi. Bakalavrning 1-, 2-kurslarida dars jarayonida talabalarning ijodiy fikrlash faoliyatiga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi. Talaba o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib, og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda o'rganilayotgan fanning o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi.

Oliy ta'lim jarayonining kredit-modul tizimida pedagogik hamkorlik professor-o'qituvchi bilan talabalarning hamkorlik faoliyati muvaffaqiyatli va yuqori samarador bo'lishi uchun on-line Moodle tizimida professor-o'qituvchi fanga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni talab darajasida kiritishi lozim bo'ladi. Bu on-line Moodle tizimida ma'lumot kiritish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yilning 17-martdagi 233-buyrug'iga 1-ilova "Ta'lim yo'nalishlarining mutaxassislik fanlari bo'yicha elektron resurslarga qo'yiladigan talablar"da har bir fan bo'yicha kirish va fanning mavzulari hamda oraliq va yakuniy nazorat qismlaridan tashkil topgan quyidagilarga rioya etish lozim, bular quyidagi 16 ta zaruriy qismlardan iborat:

I. Kirish qismi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Fan haqida ma'lumot (doc).
2. Fan dasturi (pdf).
3. Fanning axborot bilan ta'minlash (asosiy va qo'shimcha adabiyotlar (pdf), Internet resurslari, xorijiy universitetlarning ochiq ta'lim resurslari (havola).
4. Glossariy – kursda ishlatiladigan atamalar, qisqartmalar va belgilar lug'ati (doc).
5. Kirish qismida 5-10 daqiqalik videorolik (fanning mazmuni, maqsadi va erishiladigan natija haqida) tavsiya etiladi.

II. Fanning mavzulari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

6. Mavzuning nomi (doc).
7. Mavzu bo'yicha savollar to'plami (doc).
8. Mavzu bo'yicha glossariy (ushbu ma'ruzaga kiritilgan atamalar ro'yxati, terminlar umumiy glossariyda mavjud bo'lishi kerak, kamida 7-10 ta so'z (doc).
9. Mavzuga oid asosiy va qo'shimcha adabiyotlar (betlari ko'rsatilgan holda (pdf).
10. Internet tarmog'ida elektron manbalarga havolalar (matnlar, audio yoki videoroliklar, elektron kurubxona resurslarining URL manzillari).

11. Talabalar mustaqil o'rganishlari uchun nazariy material, masalan ma'ruza taqdimoti.
12. Fan mavzusiga oid audiovisual materiallar, modellar, maketlar, namunalar, keyslar (tavsiya etiladi).
13. Video ma'ruza: bunda videodagi faylning bir fragmentining davomiyligi 5-20 daqiqadan oshmasligi (tavsiya etiladi).
14. Talabalarning ma'ruza matnlarida taqdim etilgan va mustaqil ravishda o'rgangan nazariy materiallarini tushunishlari uchun bilimlarini nazorat qiluvchi test savollarini ishlab chiqish, test sinovlari bankini shakllantirishda variativlik (ko'p tanlov, yozishmalar, qisqa javob va boshqalar)dan foydalanish.

III. Oraliq va yakuniy nazorat:

15. Oraliq va yakuniy nazorat testlari yakuniy topshiriqlar.
16. Yakuniy nazorat uchun savollar.

Professor-o'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida talabalarning nutqini o'stirish bilan birga diagnostik vazifani ham bajaradi, ya'ni talabalarning so'z boyligi, qiziqish doirasini aniqlaydi, ijodiy iqtidorini chamalaydi. Ijodiy topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir. Kasb ta'limi yoki axborot texnologiyalari mashg'ulotlarini o'tish jarayonida o'zaro muloqot ta'lim samaradorligini oshirishga yaqindan yordam beradi. Talabalar bilan muloqotda ularning qiziqishini muayyan maqsadga yo'naltirish, fikr-mulohazalarini albatta inobatga olmoq joiz. Professor-o'qituvchi shakllantiruvchi muloqot davomida faqat bir o'zi gapirmasdan, talabalarning fikrlarini ham eshita bilishi lozim. Dialogning har bir qatnashchisi uni davom ettirishdan manfaatdor bo'lishi lozim, shunga ko'ra uni 3 ga bo'lish mumkin:

- I. Birinchidan, bunda fikrlarning turli-tumanligi.
- II. Ikkinchidan, mavzuga baho berish va tushunishdagi har xillik.
- III. Uchinchidan, til va boshqa ilmiy-texnik vositalarining umumiyligi samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Muloqot davomida "bir tillilik" bo'lmaganda bir fikrga kelish juda qiyin. Jumladan, ayrim hollarda targ'ibotchi masalani bayon etishda murakkab va notanish atamalardan foydalanishi natijasida talabalar uning fikrini tushunmaydilar. Agar ta'lim jarayonida dialog amalga oshmasa, professor-o'qituvchi materialni talabalarga yetkazishning zarur shaklini topa olmagan hisoblanadi. Professor-o'qituvchi talabalar bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun quyidagi talablarga amal qilishi kerak:

- 1) talaba shaxsi hurmat qilinishi, muloqot jarayonida ularning qiziqishlari va imkoniyatlari inobatga olinishi lozim;
- 2) har bir talabada qandaydir qobiliyat mavjudligiga ishonch bildirish va ularni yuzaga chiqarishga yordamlashish kerak hamda talabada o'z imkoniyatlariga, kuchiga ishonch tuyg'usini tarbiyalash lozim;
- 3) professor-o'qituvchi talaba bilan do'st, o'rtoqlik munosabatlarini o'rnatish bilan teng hamkor sifatida faoliyat yuritishi kerak;
- 4) talabalarning muvaffaqiyatlaridan quvonish, tashvishlariga sherik bo'lish va rag'batlantirish orqali ularning kelajakka bo'lgan ishonchini oshirish lozim;
- 5) munosabat jarayonida axloqiy qonun-qoidalarga qat'iy rioya etilishi professor-o'qituvchi obro'yini oshirishga yordam beradi.

Oliy ta'lim tizimida professor-o'qituvchi bilan talabalarning kredit-modul tizimidagi hamkorligida talabalarning professor-o'qituvchi bilan erkin muloqot olib borishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ya'ni talabalarning xato qilishdan qo'rqmay, o'z fikrlarini erkin bayon qilishlariga erishish, xatolarini tuzatish uchun imkon berish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish bilan bir qatorda, bunday xatolarning qayta takrorlanmasligini ta'minlaydi, har bir mavzuni erkin muhokama qilishga zamin yaratadi, talabalarning yutug'iga sherik, muammolarini hal etishga ko'makchi bo'lish professor-o'qituvchi va talabani ishonchli maslakdoshga aylantiradi.

Shunday qilib, professor-o'qituvchi bilan talabalarning oliy ta'lim jarayonining kredit-modul tizimida pedagogik hamkorligi yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- 1) darsda muammoli ta'lim, mustaqil ish metodidan, didaktik o'yinlar va yangi pedagogik texnologiyalarning interfaol usullaridan foydalanish professor-o'qituvchi bilan talabalar munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yishning muhim omilidir;
- 2) fanga taalluqli bilimlarni o'zlashtirishda talabalarning professor-o'qituvchi fikrini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmasdan, muhokama qilishi, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishi mustaqil fikrlashga o'rgatishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- 3) on-line Moodle va Hemis tizimida professor-o'qituvchi fanga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni talab darajasida kiritishi lozim;
- 4) muammolarni hal etishda professor-o'qituvchining har bir talaba fikri, munosabati va qarashlarini hurmat qilishi hamkorlikning samaradorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Сайидова Н.С., Зарипова Г.К., Абдураходов А.А., Журакулов Ж.Ж. Использование электронных ресурсов в историческом образовании и его защита. “Аэтерна” научно-издательский центр. Научный электронный журнал “Академическая публицистика”. ISSN 2541-8076 №2/2020 (февраль 2020). -Б.123-131
2. Зарипова Г., Рамозонов Ж., Абдураходов А. Информационная безопасность (обязанности). // “Аэтерна” научно-издательский центр. Научный-электронный журнал “Академическая публикация” №1, 2019 г. 16-21-стр.
3. Зарипова Г., Рўзиева К. Использование интерактивных методов в процессе обучения студентов компьютерным технологиям. “Проблемы педагогики” №7 (39) декабрь 2018. российский импакт-фактор:1,95 научно-методический журнал, 5-8-стр.
4. Сайидова Н.С., Нематов Л.А. Теория и методика профессионального образования. Образование и проблемы развития общества научно-практический рецензируемый журнал. Г. Курск. Россия. №1(7) 2019 год. 55-59-Р. (ISSN 2411-9792)
5. Сайидова Н.С., Казимова Г.Х. Разработка методики образования в вузах. Образование и проблемы развития общества научно-практический рецензируемый журнал. Г. Курск. Россия. №1 (7) 2019 год. 36-40-Р. (ISSN 2411-9792)

Шабон ФАРМОНОВА

Бухоро давлат университети
таянч докторанти

**ЛОЙИХАВИЙ ТАЪЛИМ ВОСИТАСИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ
КОММУНИКАТИВ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-
ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ**

Мақолада лойиҳавий таълим воситасида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-педагогик зарурати хусусида фикр баён этилган.

Калит сўзлар: лойиҳа, таълим, восита, ўқитувчи, педагогик фаолият, педагогик жараён, фаолият.

В статье изложена мысль о социально-педагогической необходимости развития коммуникативной культуры будущих педагогов средствами проектного обучения.

Ключевые слова: проект, Обучение, средство, учитель, педагогическая деятельность, педагогический процесс, деятельность.

The article presents the idea of the socio-pedagogical necessity of developing the communicative culture of future teachers by means of project-based training.

Keywords: project, Training, means, teacher, pedagogical activity, pedagogical process, activity.

Лойиҳавий таълим педагогика амалиётида 300 йилдан ортиқ қўлланилиб келмоқда. Немис педагоги М. Кноллнинг тадқиқотида кўра, «лойиҳа» тушунчасининг пайдо бўлиши XVI асрга тааллуқли бўлиб, италиялик меъморларнинг меъморликни фан деб эълон қилиб, уни ўқув фанлари даражасига чиқарган ҳолда ўз фаолиятларини касбга айлантиришга уринишлари билан боғлиқ.

XVIII аср охирида муҳандислик касблари пайдо бўлиши натижасида ўқув лойиҳаси дастлаб Франция, сўнгра Германия, Австрия, Швейцарияда, XIX аср ўрталарида эса АҚШдаги техника ва саноат олий мактабларида қўлланила бошланган.

Лойиҳа» атамаси ижтимоий фанлар соҳасига техника соҳасидан ўтган бўлиб, «Лойиҳа (лотинча-projectus- таржимада олдинга ташланган) – аниқ қоидаларга мувофиқ у ёки бу соҳа ҳолатини қайта қуришнинг асосий ғоясини англатади.

Таълим маъносидаги лойиҳалаштириш ўқитувчи томонидан талабанинг муаммони излаш, уни ҳал этиш бўйича фаолиятни режалаштириш ва ташкиллаштиришдан то оммавий баҳолашгача бўлган мустақил ҳаракат қилишини таъминловчи махсус ташкил этилган мақсадли ўқув фаолиятидир.

Ўтган XX асрнинг кейинги 30 йили давомида машҳур дидактикашунослар М.Н.Скаткин, В.В.Краевский раҳбарлигида маълумот мазмунига педагогик ишлов бериш ва дидактик лойиҳаларни тайёрлаш назарияси ҳамда амалиётида янги йўналиш асосланган эди. Унда ижтимоий тажриба моҳиятини таҳлил қилиб, дидактик лойиҳаларни яратиш ғояси ишлаб чиқилди.

С.И.Висотская, И.К.Журавлев, И.Я.Зорина, И.Я.Лернер, Ф.Б.Сушкова, В.С.Цетлин, В.С.Шубинский каби қилади олимларнинг илмий тадқиқотларида кўникма, малака, ижодий фаолият тажрибаси ва муносабатларни дидактик лойиҳаларнинг таркибий қисмлари шаклида қараш ва таҳлил қилиш ғояси қарор топди [1].

Лойиҳалаш педагогик жараёни ташкил этиш ва унинг муваффақиятли кечишини таъминловчи муҳим шартларидан биридир. Педагогик жараёни лойиҳалашда:

1) педагогик фаолият мазмунини таҳлил қилиш;

2) натижаларни олдиндан кўра билиш;

3) режалаштирилган фаолиятни амалга ошириш лойиҳасини яратиш каби вазифалар бажарилади.

Бу босқичда ўқитувчининг мустақил, шу билан бирга таҳсил олувчи билан ҳамкорликда ўқув жараёнининг мазмуни, воситаларини белгилаш асосида лойиҳалаштирилган фаолияти етакчи ўрин тутди. Демак,

Педагогик жараёни лойиҳалаш – лойиҳа → мазмун → фаолият учлиги асосида ташкил этилувчи педагогик фаолиятнинг умумий моҳиятини яхлит ифодалашга хизмат қилувчи лойиҳани яратишдир [2].

Лойиҳалар предмет ва унинг йўналишига кўра бир-бирдан фарқланади. Лойиҳаларда педагог томонидан кетма-кет амалга оширилувчи ва ташхиснинг қўйилиши билан яқунланувчи таҳлилий фаолият; олдиндан кўра билиш ва лойиҳалаш каби ижодий фаолиятлар намоён бўлади. Ташхис, олдиндан кўра билиш ва лойиҳалаш ҳар қандай педагогик вазифани ҳал этишнинг ажралмас учлиги ҳисобланади. Лойиҳанинг мақсади олдиндан қўзда тутилган тақвим-режа, қисқача ёзма баён сифатида акс